

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.A.Yuldashev</b>	
Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari .....	108
<b>M.M.Teshaboyev</b>	
Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik .....	115

## SIYOSAT

---

<b>H.M.Rasulov</b>	
Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida .....	120
<b>K.X.Avazov</b>	
Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
<b>B.M.Jo'raquziev</b>	
Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida .....	129
<b>D.A.Mamajonova</b>	
Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
<b>I.A.Raximov</b>	
"Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni" .....	138

## ТАРИХ

---

<b>E.G.Radjapov</b>	
Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziysi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini .....	142
<b>B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov</b>	
Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid .....	148
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
<b>S.R.Tolibova</b>	
O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida) .....	159
<b>X.X.Azimov</b>	
Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida) .....	167
<b>K.S.Karimov</b>	
Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari .....	171
<b>N.Xudoyberdiyeva</b>	
Mustaqillik yillarda Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi .....	176
<b>F.U.Temirov</b>	
Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadriddin Ayniyning publisistik faoliyati .....	179
<b>M.H.Isamiddinov</b>	
O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

## ADABIYOTSHUNOSLIK

---

<b>A.G.Sabirdinov</b>	
Omon Muxtor romanlariga chizgilar .....	188
<b>M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov</b>	
Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar .....	191
<b>P.M.Axmадjonov</b>	
Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir .....	195
<b>G.H.Axmedova</b>	
Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm .....	200
<b>G.V.Abdullayeva</b>	
Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi .....	204

**QADIMGI VA ILK O'RTA ASRLAR MARKAZIY OSIYO VA XITOY SAVDO ALOQALARI  
(XITOY MANBALARI ASOSIDA)**

**ТОРГОВЫЕ СВЯЗИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И КИТАЯ В ДРЕВНЕМ И РАННЕМ  
СРЕДНЕВЕКОВЕНИИ (НА ОСНОВЕ КИТАЙСКИХ ИСТОЧНИКОВ)**

**TRADE RELATIONS OF CENTRAL ASIA AND CHINA IN ANCIENT AND EARLY  
MIDDLE AGES (BASED ON CHINESE SOURCES)**

**<sup>1</sup>Azimov Xurshid Xakimovich**

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, t.f.f.d.  
(PhD)

**Annotatsiya**

*Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi va qadimgi Xitoy sulolalari o'tasidagi savdo aloqalariga oid ma'lumotlar mil.av. birinchi mingyllikning boshlaridan to milodiy VI asrga qadar yozilgan xitoy yozma manbalari asosida keltirilgan. Bu boroda manbalar ilmiy tahlil qilingan. Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlari Baqtriya, Parfiya, Qang', Da-Yuechji, Kushon imperiyasi, Buyuk Farg'ona (Day-yuan), Usun, Hunlar imperiyasi bilan Xitoyning Xan, Vey, Keyingi Chjao sulolasi, Shimoliy Vey sulolalari o'tasidagi iqtisodiy munosabatlar kengroq yoritilgan.*

**Аннотация**

*В статье представлены сведения о торговых отношениях между центральноазиатским регионом и древнекитайскими династиями на основе китайских письменных источников, написанных с начала I тысячелетия до н.э. VI века н.э. В связи с этим источники были подвергнуты научному анализу. Экономические отношения между древними государствами Центральной Азии, Бактрией, Парфией, Кангью, Да-Юэцизи, Кушанской империей, Великой Ферганой (Дэй-юань), Усунь, Империей Хуннов и китайской династией Хань, Вэй, поздней Чжао, династиями Северной Вэй были широко освещены.*

**Abstract**

*The article presents information about trade relations between the Central Asian region and ancient Chinese dynasties based on Chinese written sources between the beginning of the 1st millennium BC and 6th century AD. In this regard, the sources were subjected to scientific analysis. The economic relations between the ancient states of Central Asia, Bactria, Parthia, Kangyu, Da-Yueji, Kushan Empire, Great Fergana (Dei-yuan), Wusun, Hun Empire and the Chinese Han, Wei, late Zhao, Northern Wei dynasties were widely covered.*

**Kalit so'zlar:** Marakziy Osiyo, Xitoy, savdo aloqalari, xitoy manbalari, Baqtriya, Parfiya, Qang', Da-Yuechji, Kushon imperiyasi, Farg'ona, Usun, Hunlar imperiyasi, Xan, Vey, Keyingi Chjao sulolasi, shimoliy Vey.

**Ключевые слова:** Центральная Азия, Китай, торговые отношения, китайские источники, Бактрия, Парфия, Кангью, Да-Юэцизи, Кушанская империя, Фергана, Усунь, Империей Хуннов, династия Хань, Вэй, поздней Чжао, Северной Вэй.

**Key words:** Central Asia, China, trade relations, chinese sources, Bactria, Parthia, Kangyu, Da Yueji, Kushan Empire, Ferghana, Usun, Hun Empire, Han, Wei, Later Zhao Dynasty, Northern Wei.

**KIRISH**

Qadimgi Markaziy Osiyo va Xitoy o'tasidagi siyosiy, madaniy aloqalar albatta, iqtisodiy omillar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. O'sha davrda Xitoy sulolalarining g'arbg'a yuborilgan elchilarga yuklatilgan yana bir muhim vazifa savdo yo'llarini o'rganish, borgan hududlarida savdo ishlarini amalga oshirishdan iborat bo'lgan. O'zaro savdo elchilik aloqalari natijasida mahsulotlar ayirboshlangan, ular orqali olib kelingan ma'lumotlar saroy xattotlari tomonidan yozib borilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur mavzuga oid ma'lumotlar mil.av. birinchi mingyllikning boshlaridan to milodiy VI asrga qadar yozilgan birlamchi xitoy manbalari "Mu-Tyanzi chjuan" (Tangri farzandi Mu xaqida bayon) safarnomasi, "24 Tarix" (Ershi sishi)ning jildlari "Shiji" (Tarixiy xotiralar), "Xanshu" (Xan [sulolasi] tarixi), "Xou Xanshu" (Keyingi Xan [sulolasi] tarixi), "Sanguo chji" (Uch xonlik xotirasi), "Jinshu" (Jin [sulolasi] tarixi), "Veyshu" (Vey [sulolasi] tarixi), "Beyshi" (Shimoliy [sulolalar] tarixi), "Veyshu" (Vey [sulolasi] tarixi)laridagi ikki mintaqalari savdo aloqalariga oid ma'lumotlar ilmiy tarjima qilindi. Qolaversa, mavzuning ayrim qirralari A.Xodjayev, N.Karimova, Mo Jennan, Needham Joseph, Vang Jilay tomonidan o'rganilgan. Ularning tadqiqotlaridagi ma'lumotlar bilan taqqoslash, tahlil, kontent tahlil qilish metodlari orqali tadqiq qilindi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qadimgi Markaziy Osiyo mintaqasi va Xitoy sulolalari o'rtasida iqtisodiy aloqalar bir necha ming yillar davomida Buyuk ipak yo'li orqali mavjud bo'lgan. Bu haqda ma'lumotlar arxeologik topilmalardan tashqari, xitoy yozma manbalarida ham mavjud bo'lib, bugungi kunimizga qadar saqlanib qolgan. Dastlab yozma manbalar ichida muallifi noma'lum bo'Igan "Mu-Tyanzi chjuan" (穆天子传 – Tangri farzandi Mu xaqida bayon) nomli safarnomada Markaziy Osiyo bilan qadimgi Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalari mil. av. birinchi ming yillikning boshida ham mavjud bo'Iganligi haqida ma'lumotlar bor [8:40-61]. Mazkur asarning 1 – 4 boblari Chjou<sup>16</sup> (mil.av. 1122 / 1046 – 256 yy.) sulolasi beshinchi hukmdori Muning (Mu-vang mil.av. 1001 – 947-yillarda hukmronlik qilgan) g'arbiy sayohatiga bag'ishlangan. Mazkur asar dastlab nemis olimlari tomonidan o'rganilib, u mil.av. 769 yilda yozilganligi taxmin qilingan. Keyinchalik qadimgi Xitoya qaryib 400 yil ya'ni mil.av. 206 – mil. 220-yillar hukmronlik qilgan Xan sulolasi<sup>17</sup> davrida Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlari Baqtriya, Parfiya, Qang', Da-Yuechji (xitoycha o'qilishi Day yuechji), Kushon imperiyasi, Buyuk Farg'ona (Parkana), Usun (qadimgi o'qilishi Asuen 烏孙), Hunlar imperiyasi bilan savdo munosabatlari ancha jadallahsgan. Ayni shu davrda yozilgan qadimgi Xitoyning umumlashtirilgan sulolalari tarixi sanalmish "24 Tarix" (Ershi sishi 二十四史)ning dastlabki jildlari "Shiji" (Tarixiy xotiralar) "Buyuk Farg'ona tazkirası" (Dayyuan lechjuan 大宛列傳) 123-bob [5: 1136(1136)/1a/ – 1146(1146) /216], "Xanshu" (Xan [sulolasi] tarixi) "G'arbiy mamlakatlar tazkirası" (Shiyuy chjuan 西域傳) 96-bob [1:2364 (1156) – 2386 (1178)], "Xou Xanshu" (Keyingi Xan [sulolasi] tarixi), "Yorkend davlati tazkirası" (Shache-guo 莎車國) 88-boblarida [2: 3826(1316)/176/ - 3827(1317)/20 6] Markaziy Osiyo davlatlari bilan Xitoyning Xan sulolasi o'rtasidagi savdo aloqalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Milodiy 220-yilga kelib Xitoy uchta sulolaga bo'linib ketadi. Keyinchalik ushbu bo'linish jarayoni davom etib, sulolalarning soni bir necha o'ntaga yetadi. Bu parchalanish davri VI asrgacha davom etadi. Garchi, Xitoya beqarorlik davri boshlangan bo'lsa ham, uning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalari davom etdi. Xitoya hukmron bo'Igan Vey (220-280), Jin (265-420), Nanbey (janubiy va shimoliy 420-589) sulolalar tarixiga oid "Sanguo chji" (三國志 – Uch xonlik xotirasi), "Jinshu" (晋書 – Jin [sulolasi] tarixi), "Veyshu" (魏書 – Vey [sulolasi] tarixi) va "Beyshi" (北史 – Shimoliy [sulolalar] tarixi) manbalarida qadimgi Farg'onadan yuborilgan savdo elchilar haqida bir qancha ma'lumotlar uchraydi.

Vey sulolasi hukmdori Chen Lyuvang (Yuan-di 260-265) davri 265 yilda, G'arbiy Jin (265-317) sulolasi hukmdori U-di (265-290) davri 270-285-yillarda, Xou Chjao (后趙 Keyingi Chjao davlati 319-351) hukmdori Shile (石勒 319-333-yillarda taxtga o'tirgan) hukmronligi davrida 331 yil, Chyan Chin (前秦 Oldingi Chin davlati 350-394 yy.) uchinchi hukmdori Fujyan (357-385 yillarda taxtga o'tirgan) davri 381 yil, Shimoliy Vey (386-534) sulolasi uchinchi hukmdori Tay U-di (424-451) davri 437, 439, 449 va 451-yillarda, ushbu sulolaning beshinchi hukmdori Ven Cheng-di (452-466) davri 465 yilda Farg'onadan Luoyang, Chang'an va Pingcheng shaharlariга elchilar kelgan. Ular o'zlarini bilan badanidan ter qondek oqadigan qimmatbaho otlar, sopol siri (lak), marjon (dengiz toshlari), paxta<sup>18</sup> va boshqa buyumlar olib kelib Xitoy saroyga hadya etgan [3:70-74].

III-VI asrlar Xitoyning Shimoliy Vey<sup>19</sup> sulolasi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo aloqalari bo'lib turdi. Ikki mintaqqa o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar natijasida Xitoyda markaziy

<sup>16</sup> Chjou (周) sulolasi qadim zamonda *tsieu* (t̪ciəu) deb o'qilgan. O'z davrida ikkiga ya'ni G'arbiy Chjou (Shi Chjou mil.av. 1046-771) va Sharqi Chjou (Dung Chjou mil.av. 770-256) davlatlariga bo'lingan. A.Xodjayevning yozishicha, aslida ushbu sulolaning etnik kelib chiqishi qadimga xitoylarga (xan etnosiga) taalluqli bo'Imagani [8:64].

<sup>17</sup> Xan sulolasi mil. av. 206-mil. 220 yillarda hukmronlik qilgan bo'lib ikkiga bo'lingan G'arbiy Xan (Shi Xan - 西汉) mil.av.206 – mil. 25 yy. va Sharqi Xan (Dung Xan-东汉) mil. 25-220-yy. Manbalarda Oldingi Xan va Keyingi Xan nomlari bilan ham uchraydi.

<sup>18</sup> Paxta o'simligi xitoy tilidagi tarixiy lug'atlarda "baydie 白疋, baydiezi 白疋子, bayda 白苔, bodie 幢疋, bochja 鉢吒" shakllarida keltiriladi. Dastlab Afrikada yetishtirilgan. Mil. II asrda hozirgi Shinjang hududlariga kirib keladi. Janubiy va shimoliy sulolalar davridan boshlab paxta o'simligini ekish ommalashadi [10:58-59].

<sup>19</sup> Shimoliy Vey (Bey-Vey 北魏) davlati 386-534 yillarda mavjud bo'Igan. O'sha paytda uning poytaxti Day (代) bo'Igan. Day – Shimoliy Vey xonligining dastlabki nomi hisoblanadi, lekin ushbu atama aslida hoz. XXRning Shanshi (山西) o'lkasidagi bir viloyat nom bolgan. Davlat tashkil topgan yilning o'zidayoq uning nomi Veyga o'zgartirilgan. Bu o'zgarish

## TARIX

osiyolik savdogarlarning bozorlari “xushi” (胡市) paydo bo‘lgan. Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo munosabatlarining asosini ipak tashkil qilgan. Shu boisdan ipak maxsulotlarini Yevropaga eksport qilish asosan Markaziy Osiyo xududi orqali amalga oshirilgan. Kushon imperiyasi so‘nggi davrida Shimoliy Vey sulolasasi bilan savdo-sotiq jadallahsgan. Xususan, ulardan Xitoy saroyiga ko‘proq hunarmandchilik buyumlari olib borilgan. Xitoy manbalarida Kushon imperiyasi (Day yuechji guo 大月氏國) davlati nomi bilan tilga olinib, hatto u yerdan hunarmandlar Xitoy saroyida xizmat qilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud. Jumladan, “Veyshu” (魏書/魏书 Vey [sulolasij] tarixi) 102-bob, G‘arbiy mamlakatlar tazkirasi, Day yuechji guo (大月氏國)da “[Vey hukmdori] Shi-zu davrida (408-452 yy.), mazkur davlat savdogarlarining qadami [Vey sulolasining] poytaxtigacha yetgan. Ular tosh eritib rangli oyna shisha yasaymiz, degan. Shuning bilan tog‘da ruda qazib kelib, Shimoliy Vey poytaxtiga olib kelgan, yasalgan oyna-shishani g‘arbdan olib kelgandan ham chiroyli yaltiragan ekan. Hukmdor yorliq tushurib, vaqtincha saroy qurdi. Ushbu saroy tiniq va yaltirab turganligi uchun ko‘rganlar hayratta qolgan. Ko‘rganlarning hammasi buni ilohlar qilgan, deb bildi. Shundan e’tiboran Xitoyda (Chjungguo) oyna va shisha buyumlar arzonlashib ketgan bo‘lib, kishilar ularni qadrlamaydigan bo‘lgan” [7:2275]. So‘nggi paytda yevropalik olimlar tadqiqotlarida “shisha” degan so‘zning etimologiyasi xitoy tiliga o‘zlashgan, degan xulosa kelishgan. Jumladan, ingliz olimi J.Nedham fikricha, shisha mahsulot sifatida Xitoyga chet eldan kirgan va ushbu so‘z xitoy tiliga “buoli” (boli 玻璃) shaklida mo‘g‘ul va markaziy osiyoliklar tili (bolor, bilur)dan o‘zlashgan, keyinroq Tang (618-907) sulolasasi davrida Xitoy jamiyatida ommalashganini ta’kidlaydi [4:106.]. Darhaqiqat, xitoy tilidagi ushbu so‘z o‘zbek tilidagi “billur”ni eslatadi. Agar J.Nedhamning fikrlarini “Veyshu”dagi faktologik ma'lumotlar bilan solishtirilganda, haqiqatdan ham davriy jihatdan yaqinligi va asoslarni ko‘rish mumkin. Kushon imperiyasi davrida Markaziy Osiyodagi eng yirik bozorlardan biri Farg‘ona vodiysi va Pomir tog‘i atrofida joylashgan. U yerda Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab g‘arbda O‘rta yer dengizidan, sharqda Xitoydan kelgan barcha savdogarlar savdo mahsulotlarini ayrboshlaganlar [6:169].

## XULOSA

Xulosa o‘rnida bizning davrimizgacha yetib kelgan xitoy yozma manbalarida Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi savdo yo‘llari, ikki mintaqqa o‘rtasida savdo sotiq munosabatlari olib borilganligi haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mazkur ma'lumotlar batafsil yoritilgan. Jumladan, qadimgi va ilk o‘rta asrlarda qadimgi Farg‘onadan badanidan ter qondek oqadigan qimmatbaho otlar, sopol siri (lak), marjon (dengiz toshlari), paxta va boshqa buyumlar, hunarmandchilik buyumlari, shisha va uni tayyorlash texnikasi, beda o‘simgili, uzum, tok novdasi, anor, zira o‘simgili, ot, qoramol va boshqa chorva hayvonlari, qimmatbaho tosh, lojuvard, ayniqsa, kushoniqliarning jundan to‘qilgan zinch va qalin matolar Xitoy bozorlariga olib borilganligiga oid ma'lumotlar O‘zbekiston tarixini boyitishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Бан Гу. Ханшу (班固. 漢書 / 汉书 – Хан [сулоласи] тарихи) // Эршиси ши (24 тарих). 2-жилд. Пекин-Шангхай, 1956-1958.
- Фан Е. Хоу Ханшу (范晔. 後漢書 / 后汉书 – Кейинги Хан [сулоласи] тарихи) // 3 -жилд. – Шангхай, 1956-1958.
- Мо Женнан. Вейжин нанбейчао шичиде чжуңгши жяотунг (莫任南. 魏晋南北朝时期的中西交通 -Вей, Жин, Жанубий ва Шимолий сулолалар даврида Хитой ва ғарб алоқалари) // Хунан педагогика университети жамият ва фан №4. – Хунан, 1989. – Б. 70-74.
- Needham Joseph. Science and civilisation in China (Volume 4, Physics and Physical technology, Part I: Physics). – Cambridge, 1962.

398-yilda xonlik poytaxti Pingcheng (Pingcheng – hoz. Ichki Mo‘g‘ulistonidagi Datung) shahri uning poytaxti qilib belgilangan. Hozir ushbu shahar XXRning Shanshi (Shansi) o‘lkasida joylashgan Shundan keyin xonlikning nomi Vey so‘ziga o‘zgartirildi. Undan oldin, aniqrog‘i mil. av. 475-221 va mil. 220-280 yillarda ushbu so‘z bilan atalgan xonliklar mavjud edi. Shuni hisobga olib shyanbilar tomonidan tashkil etilgan oxirgi Vey davlati Shimoliy Vey (Bey-Vey) deb nomlangan. Ushbu xonikning mavjud bo‘lgan davri 386-534 yillarga to‘g‘ri keladi. Shu davr ichida 14 ta hukmdor taxtda o‘tirgan. N.Ya.Bichurin tarjimasida «day» so‘zi tarjima qilinmasdan Toponim siftida ishlatalgan. Natijada ushbu tarjimadan foydalanuvchilar uchun «Day» so‘zini bilib olish qiyin bo‘lib qolgan. Vey ieroglifining lug‘aviy ma’nosi, qobiliyatlari, baland va yirik demakdir. U ko‘proq hozirgi XXRning Xebey o‘lkasidagi viloyat nomi sifatida ishlatalgan. Xitoyda Vey ieroglifi familiya sifatida ham keng tarqalgan [9:58].

5. Сима Чян. Шижи (司马迁. 史記 / 史记 – Тарихий хотиралар) // Эршиси ши (24 тарих). 1-жилд. Пекин - Шанхай, 1956-1958.
6. Ванг Жилай. Чжунгя тунгши гудайжюан шанг (王治来.中亚通史- Марказий Осиёнинг умумий тарихи, 4/1 жилд). – Урумчи, 2004.
7. Вэй Шоу. Вэйшу. (魏收. 魏書 – Вэй [сулоласи] тарихи ) // Эршиси ши (24 тарих). 10-жилд. – Пекин, 1974.
8. Ходжаев А., Каримова Н. Сведения китайских источников по истории государственности Центральной Азии (переводы и исследования). – Ташкент: “Фан”, 2018.
9. Хўжаев А., Айтбаев А., Қўлдашев Ш., Джуманиёзова Ф. Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида. – Тошкент, 2016.
10. Чжунггуо лиши дацидян шанг (中国历史大辞典 – Хитой тарихининг катта луғати, 3/1 жилд). – Шанхай, 2007.